

YOSHLARDA AFFILIATSIYA MOTIVI RIVOJLANISHINING IJTIMOY- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Olimova Gulrux Shoxrux qizi

QarshiDU psixologiya mutaxassisligi 2-kurs magistri.

Affiliatsiya motivi psixologik muammo sifatida o'smirlar faoliyati doirasida qay tariqa o'rganilganligini tahlil qilish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki affiliatsiya motiviga oid olib borilgan nazariy-ilmiy va amaliy-uslubiy tadqiqotlar ko'lamiga ma'lum tartibda baho bermay turib, uzluksiz ta'lim tizimida tahsil olayotgan o'smirlar affiliatsiya motivini o'quv faoliyati doirasida takomillashtirish va rivojlantirish masalasi haqida fikr-mulohaza yuritib bo'lmaydi.

O'quvchilarning o'quv faoliyatiga qo'yiladigan talablarning anchagina mas'uliyatli ekanligi ko'p hollarda affiliatsiya motivining shakllanganlik darajasi bilan baholanadi. Zero, o'smirlarda affiliatsiya motivining shakllanganligi o'quvchilar adaptatsion jarayonlarining tezlashuviga, emotsional-irodaviy sohasining psixologik rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatishga, kognitiv faoliyatini faollashuviga, bilim, ko'nikma va malakalarining shakllanishiga, atrofdagilar bilan ijtimoiy rollarining identifikatsiyalashuviga xizmat qiladi.

Rus ijtimoiy psixologiyasining rivojlanishiga salmoqli hissasini qo'shgan olim G.M. Andreyeva ta'kidlaganidek, agar sotsiologlar uchun ijtimoiy munosabatlar muhim hisoblansa, psixologlar uchun shaxslararo munosabatlar alohida tadqiqot obyekti bo'lib xizmat qiladi. Aytib o'tish joizki, muvaffaqiyatga erishish, mag'lubiyatdan qochish yoki hokimiyatga intilish motivlariga nisbatan affiliativ motivlar kam o'rganilgan ijtimoiy-psixologik fenomenlar sirasiga kiradi. [1]

Affiliatsiya motivi terminiga keladigan bo'lsak, affiliatsiya inglizcha "to affiliate" so'zidan olingan bo'lib; birlashtirmoq, birlashmoq ma'nosini anglatadi, ya'ni insonning boshqa odamlar davrasida bo'lishga intilishi tushuniladi.

Turli olimlar affiliatsiya motivatsiyasiga ta'rif berganda, affiliatsiya motivatsiyasi – muloqotga intilish, bilishga intilish, o'z-o'zini ta'kidlash, manfaatli hamkorlikka intilish kabi maqsadlar, ehtiyojlar, motivlar majmuyidan iboratligini ta'kidlashadi.

Lekin "Affiliatsiyaga ehtiyoj" tushunchasi turli tadqiqot ishlarida turlicha tahlil qilingan. Affiliatsiya motivini birinchilardan bo'lib o'rgangan Xenri A.Myurrey ushbu motiv namoyon bo'lishining ikki qirrasini ajratib o'tadi: birinchisi – shaxsiy muloqot, birlashish ehtiyoji hisoblansa; ikkinchisi esa – ma'lum guruhga mansublikni o'zida ifoda etadi.

Bizning ta'rifimizga ko'ra, affiliatsiya (aloqa, muloqot) deganda, insonlar bilan muloqot o'rnatish (tanish, notanish va kam tanish insonlar) natijasida har ikkala tomonda birday qoniqish hosil qilishga, muloqot jarayonini mazmun bilan boyitishga va unga kirishib ketishga undovchi ijtimoiy o'zaro ta'sirlarning ma'lum bir sinfi tushuniladi.

Affiliatsiyaning funksiyalari G.M. Andreyeva, A.A. Bodalyov, B.F. Lomov, A.A. Leontyev va boshqalarning ilmiy izlanishlarida o'rganilib chiqilgan.



1.1-rasm. Affiliatsiya motivatsiyasining funksiyalari

a) kommunikativ (i ndividual, guruhiiy va jamoaviy o'zaro ta'sirlar darajasida odamlarning o'zaro aloqasi);

b) axborot (sezgi, idrok, xotira va boshqa vositalar asosida amaliy tajriba mazmunini jamlash va namoyon etish);

v) kognitiv funksiyalar (tafakkur, tasavvur, fantaziya vositasi orqali idrok etilgan narsalar ma'nosini anglash);

g) emotiv funksiyalar (inson tomonidan odamlar bilan bo'lgan o'z munosabatlarining kechirilishi, his etilishi);

d) konativ funksiyalari (insonning u yoki bu qadriyatlar tizimiga intilishi);

y) kreativ funksiyalari (muloqot jarayonidagi odamning yaxshi tomonga o'zgarishi)

O.S. Grebenyuk affiliatsiya motivining quyidagi funksiyalarini ajratib ko'rsatadi: 1) bilish funksiyasi (o'qitish jarayonida bilimlarga ega bo'lishni aks ettiradi); 2) emotsional funksiya (odamlar bilan bo'lgan munosabatlarini aks ettiradi); 3) integrativ funksiya (affiliatsiya motivi va o'qitish motivlarining o'zaro aloqasi asosida paydo bo'luvchi umumiy motivatsion doiraning o'zaro bir-birini to'ldirishi, uyg'unlashuvini aks ettiradi [2].

1. Bilish funksiyasi, ya'ni yangi o'quv faoliyatidagi muloqot jarayoni asosidagi bilimlar o'quvchining o'qituvchi va boshqa o'smirlar bilan muloqotlashuvi jarayoni asosida paydo bo'ladi. O'smirlar muloqot jarayonida turli xil bilimlarga ega bo'lishadi. Ushbu funksiya yuqori darajadagi tushunish bilan xarakterlanadi.

2. Emotsional funksiya, eng avvalo, o'smirning o'quv faoliyatidagi muloqot jarayonini tekshirishda, o'quv jarayonidagi emotsionallikka to'la o'zaro munosabatlar doirasi o'quv faoliyatidagi faollikka undaydi yoki passivlashtiradi, ya'ni u yoki bu kayfiyatni yaratadi, xursandchilik yoki qayg'urishga olib keladi. O'smirlarning o'rtoqlari

bilan muloqoti ularni ma'lum bir emotsional tajriba bilan boyitadi. Bu esa keyinchalik atrofdagilar bilan shunga o'xshash aloqalarni o'rnatishga, ularni faol qidirishga undaydi.

3. Integrativ funksiya o'zini namoyon qilish ehtiyojini, o'z shaxsini ta'kidlash, o'smirlarga yo'naltiruvchi, yo'l ko'rsatuvchi vazifani o'taydi. Affiliatsiya motivining bu funksiyasi o'smirning u yoki bu qadriyatlar tizimiga intilishi bilan bog'liq. O'qitish motivatsiyalari tuzilishida affiliatsiya motivi o'smirlarning muloqotdagi o'zaro tasirlar koordinatsiyasi va kelishilganligiga yo'naltirilgandir. Ular fikrlar, hissiyotlar, munosabatlar bilan o'zaro almashishadi, mavqelarini tuzatish va aniqlashtirilishi sodir bo'ladi, o'zaro ta'sir etish rejasi ishlab chiqiladi. Yana o'qitish jarayonining u yoki bu savoliga yangi nazar, yondashuv paydo bo'ladi.

G.S.Abramova, V.A. Kan-Kalik, T.A. Matis va A.K. Markova tadqiqotlarida affiliatsiya motivi o'quv faoliyatining asosiy motivi sifatida quyidagicha talqin qilinadi: [3]

1. Bilishga intilish motivini, ya'ni bilimga bo'lgan ehtiyojni anglab yetish. Ushbu motivning tub ma'nosi boshqa inson orqali (o'qituvchi, o'quvchi) bilimga ega bo'lish kerakligini anglab yetish. Bilimga bo'lgan ehtiyojni qondirishda ba'zi o'smirlar muloqot jarayoniga kirishishni, boshqalari esa kirishmaslikni istashadi, ya'ni nimadandir cho'chishadi.

2. O'z-o'zini ta'kidlash motivi (o'quv jarayonida individuallikni anglash ehtiyoji). Ushbu motivning asl tub mohiyati o'quv faoliyatida o'z aqliy qobiliyatlarini o'stirish kerakligini anglab yetish ehtiyoji va bilim-ko'nikmalarni mustaqil qo'llab ko'rish, o'quv faoliyatida o'zini ta'kidlashga erishish bilan bog'liq. O'zini-o'zi ta'kidlash motivi, odatda, o'zining betakrorligi, noyobligi, antiqaligini tan oldirishga intilish bilan bog'liq. O'quvchi liderlikka intiladi, boshqalar oldida ehtiyojini qondiradi, lekin ba'zida yaqinlari tomonidan ham rad etilishi mumkin. Shunda u unga to'sqinlik qiluvchi yoki unga yordam beruvchi insonlarni ko'radi. Shunga ko'ra, birlari bilan ushbu ehtiyojni qondirish uchun muloqotga kirishishga, boshqalari bilan esa ehtiyoj qondirilmaganligi sababli ularni chetlab o'tishga harakat qiladi.

3. Hamkorlik motivi (hamkorlikdagi o'quv faoliyatiga bo'lgan ehtiyojni anglab yetish). Hamkorlik motivi affiliatsiyaning va o'quv jarayonining ijtimoiy xarakteri bilan shartlangan. U guruh talabalarining hamkorlikdagi ishini rejalashtirishga intilishda, o'quv faoliyatida o'zaro yordam berish, xatolarni tahlil qilish, birgalikda xulosa chiqarish, yakun yasash, kelajak rejalar muhokamasidan iborat. Ushbu motiv o'smirni umumiy o'quv faoliyatiga kirishib ketishida, "boshqa inson o'rniga o'zini qo'yib ko'rishda" namoyon bo'ladi.

A.Myurrey esa odamlar o'rtasidagi bog'liqlik ehtiyojining to'rt turini ajratadi:

1. Affiliativ ehtiyoj (birlashish ehtiyoji).
2. Rad etilish ehtiyoji (obyektlarni inkor etish, chetda qolish).
3. Rahnamolik ehtiyoji (himoyalash).
4. Qo'llab-quvvatlash ehtiyoji (yordam, himoya qidirish).

A.Megrabyan affiliatsiya motivining tarkibiy qismlarini o'z tadqiqotlarida asoslab beradi hamda ushbu motivlarni affiliatsiyaga yo'nalganlik va rad etilishdan qo'rqish motivatorlariga ajratadi.

A.Maslou esa boladagi birinchi darajali sotsiogen ehtiyoj sifatida affiliatsiyaga bo'lgan ehtiyoj kontsepsiyasini oldinga suradi. Maslou fikricha, inson tug'ilganda faqatgina fiziologik ehtiyojlarga ega bo'ladi. Ma'lum muddatdan so'ng esa bola ijtimoiy bog'liqlikning birinchi belgilarini va atrofdagilarga nisbatan tanlovchan sevgini namoyon etadi. Yana ma'lum muddatdan so'ng, bola ota-ona muhabbati va g'amxo'rligini his etgandan so'ng, unda avtonomlikka, mustaqillikka, qandaydir maqsad, maqtovga nisbatan muvaffaqiyatga erishishga intilish aniqlanadi).

A.Megrabyan o'z ilmiy-tadqiqot ishlarida affiliatsiya motivining ikki xil tomonini ajratib o'tadi: affiliatsiyaga ehtiyoj (simpatiya, muloqotdagi qo'llab-quvvatlash) va rad etilishdan qo'rqish (muloqot o'rnatilmasligi yoki rasmiyligicha qolishi). Ushbu tendensiyalarning uyg'unlashuvi to'rtta turdagi affiliatsiya motivini beradi:

1. Affiliatsiyaga ishonch yuqoriligi, rad etilishga nisbatan past sezgirlik ko'p hollarda affiliatsiyaga nisbatan ehtiyojni qondiradi. Bu vaziyatda odam o'ta muloqotmand bo'lib qolishi mumkin.

2. Affiliatsiya ehtiyojining pastligi, rad etilishga nisbatan yuqori sezgirlik, ko'p hollarda affiliatsiyaga nisbatan ehtiyojni qondirmaydi yoki umuman rad etiladi.

3. Affiliatsiyaga nisbatan past intilish va rad etilishga nisbatan sezgirlikning yuqoriligi – ko'p hollarda xatti-harakatlarni qo'llab-quvvatlovchi yo ijobiy, yo salbiy affiliatsiyaga sabab bo'ladi va odam bunday holatlarda yolg'izlikni afzal ko'rib qoladi.

4. Affiliatsiyaga ishonch va rad etilishga nisbatan sezgirlikning yuqoriligi: ko'p hollarda affiliatsiyaga nisbatan ehtiyoj yo qondiriladi, yo rad etiladi. Insonda kuchli ichki ziddiyat paydo bo'ladi: u muloqotga intiladi, lekin shuning bilan birgalikda uni chetlab o'tishga harakat qiladi [4]. Ushbu tip, Megrabyan fikricha, yaqqol namoyon bo'luvchi komform xulq-atvorning motivatsion asosidir, ya'ni ijobiy va salbiy sanksiyalarni tez-tez qo'llab turish individda bog'lanish (qaramlik) tendensiyasini shakllantirish usuliga aylanadi.

R.S. Nemov fikricha, ijtimoiy xulq-atvor motivlaridan biri affiliatsiya motivi hisoblanib, u odamlar bilan o'zaro yaxshi munosabatlar o'rnatish, uni saqlab qolish va mustahkamlash kabi motiv yoki ehtiyojlar sanaladi. [5].

Shunday qilib, yuqoridagi nazariy tahlillardan affiliatsiya – ijobiy hissiyotlar bilan o'zaro ta'sirda bo'luvchi odamlar o'rtasidagi muloqot asosida qurilgan o'zaro ijtimoiy ta'sirlar doirasidir, degan xulosaga keldik.

Demak, klassik va zamonaviy psixologik adabiyotlar tahliliga ko'ra, affiliatsiya motivi o'z ichiga insonlar bilan muloqot o'rnatishga ehtiyoj, guruh a'zosiga aylanish, atrofdagilar bilan o'zaro ta'sir doirasiga kirishish, yordam ko'rsatish va qabul qilish kabi ehtiyojlarni o'z ichiga qamrab oladi.

АДАБИЁТЛАР:

1. Андреева Г.М. Социальная психология семейных отношений. - СПб., 1998. – С.176-179.
2. Гребенюк О.С., Гребенюк Т.Б. Основы педагогики индивидуальности.- Калининград: Янтарный сказ, 2000.- 572 с
3. Кан-Калик В.А. Основы профессионально-педагогического общения. - Грозный: Чех-Инг.ин-та, 1979. - 138 с.
4. Mehrabian A. Verbal and nonverbal interaction of strangers in a waiting situation// Journal of Experim. Research in Personality.-1971.-5.
5. Немов Р.С., Алтунина И.Р. Социальная психология / Учебное пособие.- СПб.: Питер,2010.-432с.
7. Олпорт Г. Становление личности: Избранные труды/ [Пер. с англ.]// Под общ. ред. Д. А. Леонтьева. - М.: Смысл, 2002. С.67–68.